FARG'ONA VILOYATI BAG'DOD TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 17 - fevral 49-11-152-Q/22 Bag'dod tumani hokimligi

Farg‘ona viloyati mahalliy budjetining 2022-yil uchun budjet so‘rovi va 2023-2024-yillar uchun budjet mo‘ljallarini ishlab chiqish va uni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etish chora-tadbirlari hamda viloyat hokimining 2021-yil 23-avgustdagi 64-11-0-Q/21-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 13-avgustdagi 06/20-01-32/1250-sonli xatiga ko‘ra, Farg‘ona viloyati mahalliy budjetining 2022-yil uchun budjet so‘rovini va 2023-2024 yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlash hamda viloyat hokimining 2021-yil 23-avgustdagi 64-11-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 13-avgustdagi 06/20-01-32/1250-sonli xati bilan yuborilgan budjet tashkilotlari, budjet mablag‘lari oluvchilar va hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan 2022-yil uchun budjet so‘rovi va 2023-2024-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tuzish tartibi hamda viloyat hokimining 2021-yil 23-avgustdagi 64-11-0-Q/21-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Farg‘ona viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) uch ish kuni ichida:

2022-yil uchun budjet so‘rovini tuzish tartibini hamda viloyat mahalliy budjetidan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini

shahar va tumanlar mahalliy budjetlari loyihalarini tayyorlash uchun - shahar va tumanlar hokimlariga;

budjet so‘rovi va budjet mo‘ljallarini tuzish uchun–viloyat mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hamda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga yuborilishini ta’minlash.

Viloyat mahalliy budjetining 2022-yilgi loyihasini tayyorlash, ko‘rib chiqish va uni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda-Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

Barcha shaharlar va tumanlar hokimlariga:

2022-yil uchun budjet so‘rovini tuzish tartibini olgandan so‘ng, uch ish kuni ichida tegishli budjetlarning budjet so‘rovlarini tuzish hamda ularni taqdim etish muddatlarini belgilash to‘g‘risida qarorlar qabul qilinishini;

mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan 2022-yil uchun budjet so‘rovini tegishli moliya organlariga belgilangan muddatlarda taqdim etilishini;

mahalliy budjetlarning 2022-yilgi loyihalari va 2023-2024-yillar uchun budjet mo‘ljallarini tegishli moliya bo‘limlari tomonidan viloyat hokimligining moliya bosh boshqarmasiga 2-ilovaga muvofiq belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta’minlash.

Viloyat mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan 2022-yil uchun budjet so‘rovlarini hamda 2023-2024-yillar uchun budjet mo‘ljallarini Farg‘ona viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish muddatlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

Ishchi guruhi (Ro‘zaliyev), shahar va tumanlar hokimlari Farg‘ona viloyati mahalliy budjetining 2022-yilgi loyihasini ishlab chiqishda:

daromadlar bo‘yicha - Davlat budjeti daromadlari prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq organlari, hokimliklar boshqarma va bo‘limlari, davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan ma’muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq, shuningdek mavjud daromad bazalari va yangi loyihalar hisobiga hamda taqdim etiladigan boshqa axborotlar asosida;

xarajatlar bo‘yicha-viloyat, shahar va tumanlar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet so‘rovlari hamda shahar va tumanlar budjetlarining loyihalari, shuningdek viloyat budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqilishini;

rejalashtirilayotgan davr uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan dasturlarda belgilangan tadbirlar uchun budjet parametrlarida ajratilishi lozim bo‘lgan mablag‘larni shakllantirish;

viloyat mahalliy budjetlari loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmasligini nazarda tutish vazifasi yuklatilganligi.

Viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) viloyat mahalliy budjetining 2022-yilgi loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 93-moddasiga muvofiq belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlash vazifasi yuklatilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Dehqonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Xusainov Y. A.**